

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/5.05.2023.B/Qx.01.17 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**BERDIYEV DILMUROD XOLMURODOVICH**

**SUG‘ORILADIGAN BO‘Z TUPROQLAR, ULARNING XOSSALARI VA  
UNUMDORLIGI (Surxondaryo viloyati misolida)**

**03.00.13-«Tuproqshunoslik»**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent–2025**

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD)  
po biologicheskix naukam**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
biological sciences**

**Berdiyev Dilmurod Xolmurodovich**

Sug‘oriladigan bo‘z tuproqlar, ularning xossalari va unumdorligi  
(Surxondaryo viloyati misolida) .....

3

**Бердиев Дилмурод Холмуродович**

Орошаемые сероземы, их свойства и плодородие (на примере  
Сурхандарьинской области).....

21

**Berdiev Dilmurod Kholmurodovich**

Irrigated serozems, their properties and fertility (on the example of the  
Surkhandarya region).....

41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....

45

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/5.05.2023.B/Qx.01.17 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI**

**BERDIYEV DILMUROD XOLMURODOVICH**

**SUG‘ORILADIGAN BO‘Z TUPROQLAR, ULARNING XOSSALARI VA  
UNUMDORLIGI (Surxondaryo viloyati misolida)**

**03.00.13-«Tuproqshunoslik»**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent–2025**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy atesstatsiya komissiyasida B2024.3.PHD/B1288 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (nauka@nuu.uz) va «ZiyoNET» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz.) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abduraxmonov Nodirjon Yulchiyevich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy oponentlar:**

**Turdimetov Shaxobiddin Muxiddinovich**  
biologiya fanlari doktori, dotsent

**Faxrutdinova Mashkura Fazliddinovna**  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/5.05.2023.B/Qx.01.17 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «25» 03 soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Talabalar shaharchasi, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zbekiston Milliy universitetining Biologiya fakulteti binosi, 4-qavat, 403-xona Tel.: (99871) 246-67-72, (e-mail: nauka@nuu.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№33-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy, Tel.: (+99871) 246-67-72).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «12» 03 kuni tarqatildi.

(2025-yil «12» 03 dagi № 1 raqamli reestr bayonnomasi).



**Z.A.Jabbarov**

Ilmiy daraja beruvch ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

**D.Yu.Maxkamova**

Ilmiy daraja beruvch ilmiy kengash kotibi, b.f.f.d., dotsent

**G.M.Nabiyeva**

Ilmiy daraja beruvch ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., dotsent

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoda «eng muhim qayta tiklanmaydigan georesurs mahsuldor yer va unumdor tuproqdir. Har yili eroziya tufayli 24 milliard tonnaga yaqin unumdor tuproq yo‘qotiladi. Bu miqdor sayyoramizdagi har bir odam uchun yiliga 3,4 tonnaga to‘g‘ri keladi»<sup>1</sup>. Shu sababli dunyoning ko‘plab mamlakatlarida eroziya jarayonlarini oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish, tuproq xossalarini yaxshilash orqali unumdorligini qayta tiklash va oshirish, tuproq qoplamini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish dolzarb masalalardan hisoblanadi

Dunyoda tog‘ oldi va tog‘ osti hududlari tuproqlarining unumdorligini chegaralovchi omillarni aniqlash, xossalarini maqbullashtirish, sifat jihatidan baholash orqali tuproqlar unumdorligini barqarorlashtirish va ulardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha bir qator ustivor yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, tog‘li hudud tuproqlarida sodir bo‘layotgan eroziya jarayonini aniqlash va uning salbiy ta‘sirini oldini olish yoki yumshatish, tuproqlarning xossa-xususiyatlarini yaxshilash, tuproq unumdorligini qayta tiklash va oshirish orqali yer resurslaridan samarali foydalanishga doir ilmiy-tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda bo‘z tuproqlar mintaqasi avtomorf, yarim avtomorf, yarim gidromorf va gidromorf sug‘oriladigan tuproqlarining hozirgi holatini aniqlash, tabiiy va antropogen omillar ta‘sirida yuzaga kelgan degradatsiya jarayonlarini oldini olish yoki yumshatish, tuproqlarni sifat jihatidan baholash va unumdorlik darajasini belgilash hamda tuproqlar qoplamini muhofazalash va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish» maqsad qilingan bo‘lib, mazkur maqsadga erishishda «Tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish»<sup>2</sup> asosiy ustivor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Shuning uchun ham respublikamizning vertikal mintaqasida shakllangan va rivojlangan sug‘oriladigan bo‘z tuproqlarda ilmiy-tadqiqotlarini o‘tkazish orqali ularning xossa-xususiyatlarini aniqlash, eroziya, gumus va oziqa elementlarni kamayishi kabi degradatsiya jarayonlarini jadalligini belgilash, tuproq sifatini baholash orqali tuproqlarni muhofaza qilish va ular unumdorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5853-son Farmoni, 2022-yil 10-iyundagi «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-277-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-fevraldagi «Qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha

<sup>1</sup> <https://www.globalagriculture.org/report-topics/soil-fertility-and-erosion.html>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni

chora-tadbirlar to'g'risida»gi 97-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhitni muhofazasi» mavzusidagi ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bo'z tuproqlarning xossaxususiyatlarini aniqlash va unumdorligi saqlash va oshirish, yerlardan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar xorijlik olimlardan E.L.Ruth, A.L.David, S.K.Schmidt, A.B.Yuksel, R.B.Gundogan, A.Akay respublika olimlaridan A.M.Rasulov, S.A.Azimboyev, R.Qo'ziyev, L.A.G'ofurova, A.E.Avliyoqulov, M.M.Toshqo'ziyev, G.Yuldashev, T.Abdraxmonov, Z.A.Jabborov, G.M.Nabiyeva, G.T.Djalilova, D.A.Qodirova, G'.T.Parpiyev, N.Yu.Abduraxmonov, A.U.Axmedov, A.J.Ismonov, Ch.R.Begimqulov, T.T.Berdiyev, Sh.A.Jo'rayev va boshqalar tomonidan olib borilgan. Lekin, Surxondaryo vohasi bo'z tuproqlari mintaqasi avtomorf, yarim gidromorf va gidromorf tuproqlarining mintaqaviy xossaxususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning unumdorligi, evolyusiyasi hamda transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining K-7-12 «O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan yerlarining tuproq qoplamini kompleks o'rganish, tuproq ekologik-meliorativ holatini yaxshilash hamda unumdorligini tiklash, baholash va boshqarishning samarador texnologiyalarini ishlab chiqish» (2009-2011-yy.) mavzusidagi amaliy hamda F5-008 «Sug'oriladigan tuproqlarning evolyutsiyasi va tuproq unumdorligini boshqarishning nazariy asoslarini tadqiq etish» (2012-2016-yy.) mavzusidagi fundamental loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Surxondaryo viloyati bo'z mintaqa tuproqlarining xossaxususiyatlarini sug'orish ta'sirida o'zgarish dinamikasini aniqlash, evolyutsion va transformatsion jarayonlarning jadalligini belgilash hamda tuproq sifatini baholash orqali sug'oriladigan bo'z tuproqlar unumdorligini saqlash va oshirishga qaratilgan yechimlar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

tabiiy va antropogen omillar ta'sirida bo'z mintaqa sug'oriladigan tuproqlarining morfogenetik xususiyatlari, agrofizikaviy, agrokimyoviy, fizik-kimyoviy xossalardagi o'zgarishlarni aniqlash;

bo'z mintaqa sug'oriladigan tuproqlarida kechayotgan evolyutsion va transformatsion jarayonlarning jadalligini belgilash hamda sug'oriladigan tuproqlarning ayrim xossalari bilan qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi o'rtasidagi korrelyativ bog'liqliklarni aniqlash;

tayanch massivlar sug'oriladigan tuproqlarini sifat jihatidan baholash, unumdorlik darajasini belgilash hamda 1:10000 masshtabli tuproq sifatini baholash

kartalari hamda agrokimyoviy kartogrammalarini tuzish;

tuproqlar unumdorligini chegaralovchi omillarni hisobga olgan holda sug'oriladigan bo'z tuproqlar unumdorligini saqlash va oshirishga qaratilgan yechimlar ishlab chiqish.

**Tadqiqot ob'yekti** sifatida Surxondaryo viloyati bo'z tuproqlar mintaqasida tarqalgan tipik bo'z, och tusli bo'z, bo'z-o'tloqi va o'tloqi tuproqlar tanlab olingan.

**Tadqiqot predmeti** bo'z tuproqlar mintaqasidagi avtomorf, yarim gidromorf va gidromorf tuproqlarning morfogenetik xossa-xususiyatlari, tuproqlar unumdorligi, tuproq unumdorligini chegaralovchi omillar, korrelyativ bog'liqliklar, ball boniteti, tuproq sifatini baholash xaritalari va agrokimyoviy kartogrammalar hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotlar dala, laboratoriya va kameral sharoitlarda tuproqshunoslikda umumqabul qilingan standart uslublar bo'yicha amalga oshirilgan bo'lib, izlanishlarda geografik, genetik, tarixiy-taqqoslash, litologik-geomorfologik, kimyoviy-analitik hamda profil usullaridan keng foydalanilgan, jumladan, tuproqning kimyoviy tahlillar «Руководство по химическому анализу почв» qo'llanmasi, dala, kameral va kartografik ishlar «Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq kartalarini tuzish bo'yicha yo'riqnoma»si hamda tuproq sifatini baholash ishlari «O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan tuproqlarini bonitirovkalash bo'yicha uslubiy ko'rsatma»sidan foydalanib bajarilgan, olingan ma'lumotlarning matematik-statistik tahlili B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» uslubiy qo'llanmasi va «Microsoft Excel» dasturi yordamida dispersion uslub asosida hisoblangan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

hududning bo'z mintaqaga sug'oriladigan avtomorf tuproqlari evolyutsion jarayonlar ta'sirida yarimgidromorf va gidromorf tuproqlar tomon transformatsiyalanganligi asoslangan;

sug'oriladigan avtomorf ( $r=0,68-0,77$ ), yarim gidromorf va gidromorf ( $r=0,81-0,90$ ) tuproqlar tarkibidagi gumus miqdori bilan g'o'za ekini hosildorligi o'rtasidagi korrelyativ bog'liqlik aniqlangan;

Surxon vohasi bo'z mintaqasi sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarida shag'alli qo'shilmalarni o'rta qatlamlardan (40-100 sm) boshlanishining tuproq unumdorligini chegaralovchi omil sifatidagi ta'siri asoslangan;

bo'z mintaqaga sug'oriladigan tuproqlari sifat jihatidan baholangan va avvalgi tur tadqiqot natijalari bilan taqqoslash asosida unumdorlik darajasidagi (yaxshi yerlar (61-80 balli) maydoni 15 foizga ortgan) o'zgarishlar dinamikasi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Denov tumanidagi tayanch massiv sug'oriladigan tipik bo'z, bo'z-o'tloqi va o'tloqi tuproqli yer maydonlarining gumus bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalovchi xaritanoma tuzilgan;

Sariosiyo, Uzun, Denov, Sho'rchi va Qumqo'rg'on tumanlaridagi tayanch massivlar sug'oriladigan yer maydonlari uchun 1:10000 masshtabli tuproq sifatini baholash xaritalari ishlab chiqilgan;

Denov tumanidagi tayanch massiv sug'oriladigan tipik bo'z, bo'z-o'tloqi va o'tloqi tuproqli yer maydonlarining harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy bilan ta'minlanganlik agrokimyoviy xaritagrammalari tuzilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotlarni dala, laboratoriya va kameral usullardan foydalangan holda o'tkazilganligi, hosildorlik bilan tuproq xossalari orasida ishonchli korrelyativ bog'liqlik aniqlanganligi, tadqiqotlar natijasida olingan nazariy va amaliy natijalarni bir-biriga mosligi, olingan ma'lumotlarga statistik ishlov berilganligi, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama etilganligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot natijalarini ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarini ilmiy ahamiyati hududning bo'z mintaqa sug'oriladigan tuproqlarining xossa-xususiyatlaridagi o'zgarishlar aniqlanganligi, evolyutsion jarayonlar ta'sirida avtomorf tuproqlardan yarimgidromorf va gidromorf tuproqlar tomon transformatsiyalanganligini ilmiy asoslanganligi, sug'oriladigan tuproqlarning ayrim xossalari bilan qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi o'rtasida ishonchli korrelyativ bog'liqliklar mavjudligi, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda shag'alli qo'shilmalarning o'rta qatlamlardan boshlanishi va ularning tuproq unumdorligini chegalovchi omil sifatidagi ta'sirini asoslanganligi, tayanch massivlar sug'oriladigan tuproqlari sifat jihatidan baholanganligi va avvalgi tur tadqiqot natijalari bilan taqqoslash asosida unumdorlik darajasidagi o'zgarishlar dinamikasini aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, hudud bo'z mintaqa avtomorf, yarim gidromorf va gidromorf sug'oriladigan tuproqlar uchun tuzilgan tuproq sifatini baholash kartalari, gumus, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy bo'yicha kartogrammalar tuproqlarning xossa-xususiyatlari va unumdorlik darajasiga qarab yerlarning me'yoriy qiymatini hisoblash va yer solig'ini belgilash, unumdorligi past bo'lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom-ashyosi yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, tuproqlarni organik moddaga boyitish, maqbul me'yor va muddatlarda mineral o'g'itlarni qo'llash va shu orqali tuproqlarning agrokimyoviy holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** Surxondaryo vohasi bo'z mintaqasi sug'oriladigan tuproqlarining xossalari va unumdorligi bo'yicha olingan ilmiy va amaliy natijalar asosida:

Denov tumani A.Temur nomli massiv sug'oriladigan tuproqlarining gumus bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalovchi kartogramma tuzilgan va massivdagi fermer xo'jaliklari foydalanishidagi 1930,95 gektar sug'oriladigan yer maydonlarida amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 10-dekabrda 05/03-03-398-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur ma'lumotlar hududdagi tipik bo'z, bo'z-o'tloqi va o'tloqi tuproqlarni organik moddaga boyitish orqali tuproq unumdorligini oshirish choralari belgilashga imkon bergan;

Sariosiyo tumanidagi I.Diyorov nomli, Uzun tumanidagi «Guliston», Denov tumanidagi A.Temur, Sho'rchi tumanidagi Y.Oxunboboyev va Qumqo'rg'on tumanidagi S.Boymatov nomli massivlar sug'oriladigan yer maydonlari uchun 1:10000 masshtabli tuproq sifatini baholash kartalari ishlab chiqilgan va massivlar hududidagi 12095,1 gektar sug'oriladigan yer maydonlarida fermer xo'jaliklar

foydalanishlari uchun amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 10-dekabrda 05/03-03-398-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu ma'lumotlar sug'oriladigan tuproqlarning xossa-xususiyatlari, unumdorlik darajasiga qarab yerlarning me'yoriy qiymatini hisoblash, hosildorlikni rejalashtirish, unumdorligi past bo'lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom-ashyosi yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi sub'yektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash imkonini bergan;

Denov tumani A.Temur nomli massiv sug'oriladigan tuproqlarini harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy bilan ta'minlanganlik agrokimyoviy kartogrammalari tuzilib, fermer xo'jaliklarining 1930,95 gektar sug'oriladigan yer maydonlarida amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 10-dekabrda 05/03-03-398-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur ma'lumotlar yerdan foydalanuvchi subyektlar sug'oriladigan yer maydonlarining mineral o'g'itlarga bo'lgan talabini aniqlash, maqbul me'yor va muddatlarda mineral o'g'itlarni qo'llash va shu orqali tuproqlarning agrokimyoviy holatini yaxshilashga imkon bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari jami 5 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilinib muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Ushbu dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy maqolalar chop etilgan bo'lib, shundan Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 116 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan. O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Surxondaryo vohasi bo'z mintaqasi sug'oriladigan tuproqlarini o'rganilish tarixi**» deb nomlangan birinchi bobida tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ma'lumotlari asosida sug'oriladigan tuproqlarning xossa - xususiyatlari va unumdorligini chegaralovchi omillarni aniqlash, tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash, bo'z tuproqlardan samarali foydalanishga doir tadqiqotlarning adabiyotlar sharhi keltirilgan.

Sugʻorilib dehqonchilik qilinadigan yerlarda sugʻorish natijasida tuproqlarda kuzatiladigan turli oʻzgarish jarayonlari, ilmiy jihatdan yagona meliorativ tadbirlar majmui respublika boʻyicha barcha tuproq tiplariga mos kelmasligi, biroq buni asosiy yoʻnalish sifatida qabul qilib, tuproq iqlim sharoiti, hududning gidrogeologik xususiyatlarini inobatga olgan holda qoʻllash mumkinligi, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, tuproqlarning mexanik tarkibi kabilar borasidagi olib borilgan izlanish natijalarining tahlili keltirib oʻtildi. Qayd qilingan adabiyotlar maʼlumotlarining yakuniy xulosasida sugʻorish taʼsirida tuproqlar hosil boʻlish sharoitlari va ularning shakllanish qonuniyatlari va tuproq qoplamlaridagi oʻzgarish jarayonlarini doimiy oʻrganish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, sifat jihatdan baholash va unumdorligini belgilash boʻyicha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligi xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning «**Surxondaryo viloyatining tabiiy-iqlim sharoitlari, tadqiqotlar obʼyekti va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot oʻtkazilgan joyning geologik, geomorfologik, litologik tuzilishi, relʼyefi, gidrogeologik sharoitlari, iqlimi, oʻsimliklar dunyosi va inson omilining taʼsiri hamda tadqiqot obʼyekti va oʻrganish uslublari toʻgʻrisida maʼlumotlar keltirilgan.

Ilmiy tadqiqotlar Surxondaryo vohasi boʻz mintaqasi sugʻoriladigan tuproqlarida olib borilgan boʻlib, tayanch massiv sifatida viloyatning Sariosiyo, Uzun, Denov, Shoʻrchi va Qumqoʻrgʻon tumanlarida tarqalgan sugʻoriladigan tipik boʻz, och tusli boʻz, oʻtloqi-boʻz, boʻz-oʻtloqi va oʻtloqi tuproqlari tanlab olingan.

Tadqiqotlar davomida dala, laboratoriya, kameral va kartografik ishlar tuproqshunoslikda umumqabul qilingan standart uslublarni boʻyicha amalga oshirildi. Izlanishlarda geografik, genetik, litologik-geomorfologik, kimyoviy-analitik hamda profil usullaridan foydalanildi. Olingan maʼlumotlarning matematik-statistik tahlili B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» uslubiy qoʻllanmasi va «Microsoft Excel» dispersion uslub asosida hisoblandi.


Dissertatsiyaning «**Sugʻoriladigan boʻz tuproqlarning tavsifi va ularning agrofizikaviy xossalari**» deb nomlangan uchinchi bobida sugʻoriladigan tuproqlarning morfologik tuzilishi, avtomorf, yarim gidromorf va gidromorf namlanish qatori tuproqlarining umumiy tavsifi, shuningdek, mexanik tarkibi, suv-fizik xossalari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar oʻrin olgan.

Oʻrganilgan hududning katta maydoni boʻz tuproqlardan iborat boʻlib, ularning yuqori chegarasi dengiz sathidan 1000-1600 m balandlikda boʻlsa, pastki chegarasi dengiz sathidan 450-500 m ni tashkil qiladi. Bu mintaqada qisman toʻq tusli boʻz, asosan sugʻoriladigan tipik va och tusli boʻz tuproqlar, ularning ichida oʻtuvchi boʻz-oʻtloqi, oʻtloqi tuproqlar keng tarqalgan.

Eroziyalangan tuproqlar ustki qatlami yuvilib, karbonatlar yuzaga yaqinlashgan, sugʻoriladigan oʻtloqi tuproqlarda gumus keng oraliqlarda 0,443-3,496% gacha tebranadi. Aksariyat oʻtloqi tuproqlarning gumus miqdori uning evolyutsiyasi va shakllanish sharoitlariga qarab turlicha boʻladi. Bu tuproqlar yuqori ishlab chiqarish qobiliyatiga ega boʻlib, asosan shoʻrlanmagan, bazan kuchsiz darajada shoʻrlangan.

Surxondaryo vohasi boʻz mintaqasida tadqiqotlar olib borilgan hududlar maydoni 12095,1 gektarni tashkil etib, mexanik tarkibiga koʻra, ogʻir qumoqlar 19,4%, (2346,44 ga), oʻrta qumoqlar 43% (5200,98 ga), yengil qumoqlar

29,5% (3568,05 ga), qumloqlar 7,1% (858,75 ga), qumlar 0,9% (108,85 ga) va loylar 0,1% (12,09 ga)ni tashkil qilib, asosan oʻrta va yengil qumoqlidir (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqot hududi tuproqlarining mexanik tarkibi, maydoni % da

Sugʻoriladigan tipik boʻz tuproqlari mexanik tarkibiga koʻra asosan oʻrta qumoqli boʻlib, baʼzi hollarda pastki qatlamlardagi yengil qumoq bilan almashinadi. Sugʻoriladigan oʻtloqi tuproqlarning mexanik tarkibi oʻrta va ogʻir qumoq va loylardan tashkil topgan boʻlib, sugʻoriladigan boʻz-oʻtloqi tuproqlarning mexanik tarkibi asosan oʻrta qumloqlardan iborat, lekin baʼzida yengil qumloqlar bilan almashingan qatlamlar ham uchraydi. Sugʻoriladigan och tusli boʻz tuproqlar mexanik tarkibiga koʻra, yengil qumloqlardan iborat boʻlib, ayrim qatlamda yengil qumoqli tuproqlar qumloqlar bilan almashadi. Barcha massiv sugʻoriladigan tuproqlari tarkibida mayda qum (0,1-0,05 mm) va yirik chang (0,05-0,01 mm) zarrachalarining ustunligini koʻrish mumkin.

Tuproqlarning suv oʻtkazuvchanligi asosan uning zichlanganligi, shoʻrlanganligi va mexanik tarkibiga bogʻliq holda oʻzgarib boradi. Yengil qumoqli va qumloqli, kuchsiz shoʻrlangan oʻtloqi hamda boʻz-oʻtloqi tuproqlar nisbatan yaxshi suv oʻtkazish qobiliyatiga ega. Tuproqlarni mexanik tarkibining yengilligi, yuqori qatlamlarida suvga chidamli agregatlarning koʻpligi va zichlanmaganligi yuqori suv oʻtkazuvchanlikka sabab boʻladi. Mexanik tarkibi ogʻir, kuchli zichlashgan tuproqlarda suv oʻtkazuvchanligi yomonlashgan. 6 soat davomida shimilgan suv miqdori maʼlumotlari asosida suv oʻtkazuvchanligi boʻyicha oʻrganilgan sugʻoriladigan tuproqlari 3-ta guruhga ajratildi:

1. 50-100 mm - kuchli zichlashgan, hajm ogʻirligi 1,50-1,60 g/sm<sup>3</sup>, ogʻir va oʻrta mexanik tarkibli tuproqlardan iborat qoniqarsiz suv oʻtkazuvchanlik.

2. 100-200 mm – oʻrtacha zichlashgan, hajm ogʻirligi 1,40-1,50 g/sm<sup>3</sup>, ogʻir va oʻrta mexanik tarkibli tuproqlardan iborat qoniqarli suv oʻtkazuvchanlik.

3. 200-300 mm – kam zichlashgan, hajm ogʻirligi 1,30-1,40 g/sm<sup>3</sup>, oʻrta va engil mexanik tarkibli tuproqlardan iborat yaxshi suv oʻtkazuvchanlik.

Tuproq qatlamlari orasida sugʻorish va yogʻin suvlari quyiga tomon tez siljiganligi uchun suv oʻtkazuvchanligi yaxshi boʻlgan tuproqlar suv bilan yaxshi taʼminlanadi. Suv oʻtkazuvchanligi juda yaxshi boʻlgan tuproqlar meʼyordan oshiqcha sugʻorilishi, yoki sugʻorish ariqlaridagi suvning maʼlum qismi pastki tomon shimilishi oqibatida sizot suvi koʻtarilib, tuproq botqoqlanishi va shoʻrlanishi mumkin. Tadqiqotlar olib borilgan tuproqlarni suv oʻtkazuvchanligini yaxshilash

uchun organik modda bilan boyitish, almashlab ekishni joriy qilish, og'ir mexanik tarkibli tuproqlarni yengillashtirish, yengillarini esa og'irlashtirish, chuqur haydash va yumshatish zarur. Agarda mazkur agrotexnik va agromeliorativ tadbirlar amalga oshirilsa, o'simliklarning mineral o'g'it bilan ta'minlanishi yaxshilanib, sug'orish va sho'r yuvish ishlari samaradorligi ortishi hisobiga hosildorlik ham ko'payadi.

Bo'z mintaqa tuproqlarining yuqori haydalma qatlamlarida dala nam sig'imi o'rtacha 23,43-25,97% ga teng. Shu bilan birgalikda tuproqlarning og'ir mexanik tarkibli ayirmalari o'rta va yengil qumoqlariga qaraganda bir muncha yuqori suv sig'imiga ega. Ayrim qatlamlarining mexanik tarkibi bir xil bo'lmasligi va sho'rlanish darajasi har xilligi sababli suv sig'imi ham turli-tumandir. O'rganilgan hudud tuproqlarining TNS 36,29% dan 42,54% gacha bo'lsa, KNS 30,36-36,17% ni tashkil qiladi. Tuproqlarning TNS KNSga nisbatan taxminan 6% ga yuqori.

Maksimal gigroskopiklik kesma chuqurliklari bo'yicha katta darajada o'zgaradi. Tuproq qatlamlari bo'yicha SN (1,72-6,99%) ham, maksimal gigroskopiklik namlik (1,15-4,66%) ham ustki qatlamlardan quyi qatlamlarga qarab oshib boradi.

O'rganilgan tuproqlar haydov qatlamining solishtirma og'irligi 2,58 - 2,69 g/sm<sup>3</sup> gacha, hajm og'irliklari 1,38 - 1,64 g/sm<sup>3</sup> gacha bo'lgan oraliqlarda, umumiy g'ovaklik esa 43-49% oraliqlarida tebranib, solishtirma hamda hajm og'irlik ko'rsatgichlari haydov qatlamiga nisbatan haydov osti qatlamida yuqoriroq ekanligi, umumiy g'ovaklik esa yuroqidan pastga tomon kamayib borish holati kuzatildi.

Dissertatsiyaning «**Sug'oriladigan bo'z tuproqlarning kimyoviy xossalari va meliorativ holati**» deb nomlangan to'rtinchi bobi uch qismdan iborat bo'lib, unda sug'oriladigan tuproqlarning agrokimyoviy xossalari, fizik-kimyoviy tarkibi va sho'rlanish darajalari asosida tuproqlarning meliorativ holatini baholash bo'yicha bajarilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, o'rganilgan hududlar bo'yicha tipik bo'z tuproqlar haydov qatlamida gumus miqdori 1,152% umumiy azot 0,08%, umumiy fosfor 0,240%, umumiy kaliy 1,68% miqdorida ekanligi, harakatchan fosfor va almashinuvchan kaliy bilan o'rtacha darajada ta'minlanganligi, karbonatlar 4,7%, SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> gips esa 0,050% miqdorida ekanligi aniqlangan. Och tusli bo'z tuproqlar gumus bilan kam ta'minlanganligi, umumiy fosfor 0,173%, umumiy kaliy 1,58% ekanligi, harakatchan fosfor bilan ham, almashinuvchi kaliy bilan ham kam ta'minlangani holda, karbonatlar 6,5%, SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> gips esa 0,059% miqdorlarida uchrashligi aniqlangan. Bo'z-o'tloqi tuproqlarning ustki haydalma qatlamida gumus 1,143%, umumiy azot 0,085%, umumiy fosfor 0,206%, umumiy kaliy 1,68% miqdorlarida uchraydi. Harakatchan fosfor (15,46 mg/kg) bilan kam, almashinuvchi kaliy bilan (224 mg/kg) esa o'rtacha darajada ta'minlangani holda, karbonatlar 5,7%, SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> gips 0,152%ni tashkil etadi. O'tloqi tuproqlar esa gumus bilan yetarli darajada ta'minlangan, harakatchan fosfor bilan kam va o'rtacha, almashinuvchan kaliy bilan ham kam va o'rtacha ta'minlangan bo'lib, umumiy azot 0,095-0,145%, umumiy fosfor 0,377-0,405%, umumiy kaliy 1,58-1,63%ni, karbonatlar 3,1-6,1% va SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> gips esa 0,255-0,354% atrofida ekanligi aniqlangan (1-jadval).


Denov tumani A.Temur nomli tayanch massiv sug'oriladigan tuproqlari oziqa elementlari bilan ta'minlanishiga ko'ra, gumus bilan massiv sug'oriladigan tuproqlarining 10,23 foizi kam, 7,13 foizi o'rtacha, 57,11 foizi ko'proq, 20,52 foizi

ko'p va 4,99 foizi yuqori darajada ta'minlangan (2-rasm). Harakatchan fosfor ( $P_2O_5$ ) bilan ta'minlanish darajasiga ko'ra, massiv sug'oriladigan maydonlarining 22,62 foizi juda kam, 74,11 foiz kam, 3,25 foiz o'rtacha darajada ta'minlangan bo'lib, ko'p va juda ko'p ta'minlangan maydonlar uchramaydi. Kam darajada ta'minlangan tuproqlar katta maydonni egallaydi (3-rasm). Almashinuvchi kaliy ( $K_2O$ ) bilan kam ta'minlangan maydon 28,33 foiz, o'rtacha 43,36 foiz, ko'p ta'minlangan maydon 13,95 foiz va juda ko'p ta'minlangan maydon esa 14,34 foizni tashkil etadi (4-rasm).


1-jadval

### Sug'oriladigan tuproqlarning kimyoviy tarkibi


Kesma raqami №	Qatlam chuqurligi, sm	Gumus, %	Umumiy azot %	C:N	Oziqa elementlari				CO <sub>3</sub> <sup>2-</sup> karbo natlar	SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup> gips
					yalpi, %		harakatchan, mg/kg			
					fosfor	kaliy	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	K <sub>2</sub> O		
I.Diyorov nomli massiv, sug'oriladigan tipik bo'z tuproq										
20	0-31	1,152	0,08	8,4	0,240	1,68	42,15	260	4,7	0,050
	31-48	0,958	0,075	7,4	0,186	1,57	34,67	200	3,4	0,057
	48-75	0,704	0,062	6,6	0,173	1,38	24,67	180	3,5	0,057
	75-107	0,600	0,055	6,3	0,165	1,20	14,52	110	3,9	0,074
	107-150	0,475	0,045	6,1	0,150	1,10	13,33	92	4,5	0,074
«Guliston» massivi, sug'oriladigan o'tloqi tuproq										
202	0-32	1,944	0,145	7,8	0,377	1,63	35,63	218	3,1	0,354
	32-56	1,528	0,127	7,0	0,273	1,50	32,75	195	6,5	0,329
	56-87	0,859	0,075	6,6	0,237	1,25	29,57	140	7,3	0,206
	87-106	0,760	0,066	6,7	0,243	1,12	16,85	118	9,7	0,386
	106-160	0,627	0,059	6,2	0,213	1,09	14,76	97	10,2	0,361
A.Temur nomli massiv, sug'oriladigan o'tloqi tuproq										
261	0-34	1,322	0,095	8,1	0,405	1,58	27,50	195	6,1	0,255
	34-51	1,063	0,084	7,3	0,263	1,42	22,15	175	6,7	0,107
	51-70	1,060	0,078	7,9	0,123	1,25	14,67	112	7,9	0,115
	70-98	0,956	0,080	6,9	0,097	1,12	12,67	85	7,6	0,173
	98-160	0,756	0,077	5,7	0,067	0,85	10,17	78	8,2	0,098
Y.Oxunboboyev nomli massiv, sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproq										
275	0-30	1,143	0,085	7,5	0,206	1,68	15,46	224	5,7	0,152
	30-49	0,987	0,072	7,5	0,120	1,61	14,88	189	5,3	0,084
	49-84	0,809	0,070	6,6	0,109	1,37	12,41	162	4,5	0,117
	84-112	0,580	0,052	6,3	0,070	1,16	9,73	146	4,6	0,090
	112-171	0,568	0,050	6,3	0,052	0,98	7,18	91	5,9	0,140
S.Boymatov nomli massiv, sug'oriladigan och tusli bo'z tuproq										
362	0-35	0,568	0,045	7,3	0,173	1,58	16,85	183	6,5	0,059
	35-60	0,443	0,037	6,9	0,142	1,32	14,43	165	6,5	0,043
	60-78	0,342	0,032	6,2	0,117	1,28	13,33	127	6,9	0,125
	78-108	0,205	0,021	5,7	0,102	1,05	11,4	96	7,8	0,049
	108-162	0,205	0,024	5,0	0,067	0,95	10,2	67	6,3	0,086



**2-rasm. Tayanch massiv tuproqlarining gumus ko'rsatkichlari, % hisobida**



**3-rasm. Tayanch massiv tuproqlarini P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> bilan ta'minlanishi, % hisobida**



**4-rasm. Tayanch massiv tuproqlarini K<sub>2</sub>O bilan ta'minlanishi, % hisobida**

Kimyoviy tahlil natijalariga ko'ra, avtomorf tuproqlardan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning haydov va haydov osti qatlamida suvda oson eruvchi tuzlarning miqdori 0,158-0,220%, sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarda mos ravishda 0,150-0,198%, yarim gidromorf tuproqlardan bo'z-o'tloqi tuproqlarda 0,140-0,150%, gidromorf tuproqlardan o'tloqi tuproqlarda 0,100-0,150% ni tashkil etib, o'rganilgan ushbu tuproqlar amaldagi klassifikatsiyaga ko'ra sho'rlanmagan yoki kuchsiz sho'rlangan. Sho'rlanish ximizmiga ko'ra asosan sulfatli va xlorid-sulfatli tipda sho'rlangan bo'lib, sho'rlanmagan maydonlarning katta qismi sulfatli, kuchsiz sho'rlangan maydonlar esa xlorid-sulfatli sho'rlanish tipiga ega. Gips miqdoriga ko'ra o'rganilgan barcha tayanch massivlar sug'oriladigan tuproqlari gipslashmagan ( $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O} < 10\%$ ) tuproqlar guruhiga mansubdir.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, bo'z tuproqlar mintaqasida tarqalgan avtomorf tuproqlardan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning haydov va haydov osti qatlamlarida singdirilgan kationlar yig'indisi 12,96-14,18 mg-ekv, sug'oriladigan och bo'z tuproqlarning haydov va haydov osti qatlamlarida 9,05- 9,24 mg-ekv, yarim gidromorf tuproqlardan sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlarning haydov va haydov osti qatlamlarida 10,74-11,50 mg-ekv, gidromorf tuproqlardan sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarning haydov va haydov osti qatlamlarida 14,96-15,34 mg-ekvni tashkil etib, singdirilgan kationlar orasida kalsiy va magniy asosiy o'rinni egallaydi. Natriyning ulushi esa sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning haydov va haydov osti qatlamlarida 2,0-2,1%, och tusli bo'z tuproqlarning haydov va haydov osti qatlamlarida 3,39-5,62%, sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlar tuproqlarning haydov va haydov osti qatlamlarida 2,29-3,24%, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarning haydov va haydov osti qatlamlarida 1,71-3,53% ga teng bo'ib, o'rganilgan barcha tuproq tip va tipchalari sho'rtoblashmagan (<1,0 mg-ekv) ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot olib borilgan massivlar tuproqlaridagi tuz zahirasi katta oraliqda tebranadi, xususan Sariosiyo, Uzun, Denov va Sho'rchi tumanlaridan tanlangan tayanch massivlar bo'z mintaqa sug'oriladigan tuproqlarining ustki 0-1 metrlik qatlamidagi gektarida 12,922-35,784 tonnagacha, mintaqaning quyi qismi yerlarida (Qumqo'rg'on tumani) 42,458 tonnagacha bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

O'rganilgan sug'oriladigan tuproqlarning meliorativ holati gektar hisobida 0-1 metrlik qatlamidagi umumiy tuz zahiralariga ko'ra quyidagicha baholandi:

meliorativ holatiga ko'ra «yaxshi» - tuz zahirasi 0-50 t, 0-1,4 t xlor ioni zahirasi ega bo'lgan tuproqlar, sho'rlanmagan, tuz zahirasi juda kam;

meliorativ holatiga ko'ra «qoniqarli» - tuz zahirasi 50-100 t, xlor ioni zahirasi 1,4-4,9 t bo'lgan tuproqlar, kuchsiz darajada sho'rlangan, tuz zahirasi kam.

Sizot suvlari va tuproqda mavjud aylanma harakatdagi tuzlarning eruvchanligi qancha kam bo'lib, eritma to'yinish nuqtasiga qancha erta erishsa, ularning to'planish geografik areallari shuncha katta maydonlarni egallaydi.

Dissertatsiyaning «**Surxondaryo vohasi bo'z mintaqasi sug'oriladigan tuproqlarining unumdorligi**» deb nomlangan beshinchi bobi uch qismdan iborat bo'lib, unda tayanch massivlar misolida evolyutsion jarayonlar ta'sirida bo'z mintaqasi sug'oriladigan tuproqlarining transformatsiyalanishi va ular unumdorligining o'zgarish dinamikasi, tuproqlarining ayrim xossalari bilan g'oz'a hosildorligi o'rtasidagi korrelyativ bog'liqliklar, sug'oriladigan avtomorf, yarim gidromorf va gidromorf tuproqlarini sifat jihatdan baholash va unumdorlik darajasini belgilash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Surxondaryo viloyati bo'z mintaqasi sug'oriladigan tuproqlarida kechayotgan evolyutsion jarayonlar ta'sirida bir tuproq tipchasining ikkinchi tuproq tipchasiga transformatsiyalanishi bo'yicha ma'lumotlar olindi. Tuproqlar transformatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar och tusli bo'z (S.Boymatov nomli massiv) va tipik bo'z (A.Temur nomli massiv) tuproq mintaqalarida tarqalgan sug'oriladigan tuproqlar misolida o'rganildi. Natijalar quyidagicha:


Denov tumani A.Temur nomli massiv hududida o'tkazilgan tadqiqot natijalari avvalgi o'tkazilgan tadqiqot natijalari bilan solishtirib o'rganilganda sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar 1999-yilda 181,95 ga, 2013 yilda 100,0 ga va hozirga kelib 95,0 gektarni tashkil etib, o'tgan 23 yil davomida sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar maydoni 86,95 gektarga kamaygan. Tayanch massivdagi sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlar bo'yicha ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 1999 yilda 1213,0 ga, 2013-yilda 373,85 ga, 2022-yilda 187,95 gektarni tashkil qilgan va o'tgan davr mobaynida yarim gidromorf tuproqlar maydoni 1025,05 gektarga kamaygan. Tayanch massivdagi sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar bo'yicha ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 1999-yilda 508,0 ga, 2013 yilda 993,1 ga, 2022-yilda 1648,0 gektarni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan davrda gidromorf tuproqlar maydoni 1140,0 gektarga ko'paygan. Bundan tashqari, mazkur massiv hududida 1999-yilda 28,0 gektar, 2013-yilda esa 464,0 ga botqoq-o'tloqi tuproqlar ham mavjud bo'lgan, keyingi yillardagi bajarilgan agromeliorativ va agrotexnik tadbirlar natijasida 2022-yilgi tadqiqotlarimizda massivda botqoq-o'tloqi tuproqlar mavjud emasligi, bu maydonlar o'tloqi tuproq tipiga o'tib ulgurani aniqlandi (5-rasm).

Qumqo'rg'on tumani S.Boymatov nomli massiv hududida o'tkazilgan tadqiqot natijalari avvalgi o'tkazilgan tadqiqot natijalari bilan solishtirib o'rganilganda sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar 1999-yilda 5348,0 ga, 2013-yilda 5160,6 ga va hozirga kelib 4213,44 gektarni tashkil etib, o'tgan 23 yil davomida sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar maydoni 1134,56 gektarga kamayganligi aniqlandi. Massivdagi sug'oriladigan bo'z-o'tloqi tuproqlar bo'yicha ushbu ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hududda 1999-yilda yarim gidromorf tuproqlar mavjud bo'lmagan, 2013 yilda 117,5 gektarda shakllanganligi, 2022-yilda ular maydoni 976,93 gektarga yetganligi aniqlandi. Tayanch massivdagi sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar bo'yicha


ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 1999-yilda 818,0 ga, 2013 yilda 887,9 ga, 2022-yilda 975,63 gektarni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan davr mobaynida gidromorf tuproqlar maydoni 157,63 gektarga ko'payganligi aniqlandi (6-rasm).

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'tgan qariyb chorak asr davomida tipik bo'z tuproqlar mintaqasidagi sug'oriladigan avtomorf (tipik bo'z) va yarim gidromorf (bo'z o'tloqi) tuproqli maydonlarning katta qismi gidromorf (o'tloqi) tuproqlar tipiga transformatsiyalanishga ulgurgan. Och tusli bo'z tuproqlar mintaqasining avtomorf (och tusli bo'z) tuproqlari yarimgidromorf (bo'z o'tloqi) va gidromorf (o'tloqi) tuproqlar tomon transformatsiyalanib borayotganligi kuzatildi.

Shuningdek, viloyat bo'z mintaqasi sug'oriladigan tuproqlarida olib borilgan so'ngi 2 tur tuproq sifatini baholash ma'lumotlarini qayta ishlash asosida tayanch massivlardagi mavjud sug'oriladigan tuproqlari unumdorligini o'zgarish tahlil qilindi.



5-rasm. Tipik bo'z tuproqlar mintaqasi sug'oriladigan tuproqlaridagi 23 yillik transformatsion o'zgarishlar (A.Temur nomli massiv misolida, maydoni ga hisobida)



6-rasm. Och tusli bo'z tuproqlar mintaqasi sug'oriladigan tuproqlaridagi 23 yillik transformatsion o'zgarishlar (S.Boymatov nomli massiv misolida, maydoni ga hisobida)

Tadqiqot olib borilgan bo'z mintaqasi tuproqlari tarqalgan hududda sug'oriladigan yer maydoni 12095,1 gektarni tashkil etib, 9 yil ichida kadastr guruhiga ko'ra eng yaxshi yerlar (81-100 balli) 104,8 ga, o'rtacha yerlar (41-60 balli) 1461,5 ga, o'rtachadan past yerlar (21-40 balli) 219,5 gektarga kamaygan bo'lsa, yaxshi yerlar (61-80 balli) maydoni 1785,8 gektarga ko'paygan (2-jadval).

2-jadval

**Surxondaryo viloyati bo'z mintaqasida o'rganilgan tayanch massivlar sug'oriladigan tuproqlar sifat bahosini yillar davomida o'zgarish dinamikasi**

maydoni, ga hisobida

